



ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNI SPORT TO'GARAGIGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK MEXANIZMLARI

Ramazonova Mohichehra Sodiq qizi:

Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi

mramazonova07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aralash ta'lim texnologiyalarining mohiyati, uning sport to'garaklariga talabalarni jalb etishdagi o'rni, shuningdek, didaktik mexanizmlar orqali bu jarayonni samarali tashkil qilish masalalari tahlil qilingan. Sportga bo'lgan motivatsiyani oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda aralash ta'lim texnologiyalari muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda sport to'garaklari faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali talabalar ishtirokini faollashtirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, sport to'garaklari, pedagogik asoslar, didaktik mexanizmlar, talabalar, interaktiv metodlar, sog'lom turmush tarzi.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim pedagogik ehtiyojga aylangan. Xususan, aralash ta'lim texnologiyalari ta'limning interaktivligini oshiradi, talabalar faoliyatini faollashtiradi va ularni mustaqil bilim olishga undaydi. Bu texnologiyalar nafaqat nazariy fanlarda, balki amaliy yo'nalishlarda, jumladan, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida ham qo'llanilishi zarurligini vaqtning o'zi ko'rsatmoqda. Talabalar orasida sog'lom turmush tarziga intilish, jismoniy faollikni oshirish va sport to'garaklariga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Ammo an'anaviy usullar bu masalani to'liq hal eta olmayapti.





Shu bois, sport to'garaklarini tashkil etishda pedagogik yondashuvni yangilash, raqamli texnologiyalar va aralash ta'limning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Aralash ta'lim texnologiyalarining sport tarbiyasidagi qo'llanilishi hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu model orqali talabalarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni jismoniy faoliyatga samarali jalb etish imkoniyati mavjud.

Mazkur maqolada aynan shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar asosida aralash ta'lim texnologiyalarining sport to'garaklari bilan integratsiyalashuv holati, uning samaradorligi va bu jarayondagi didaktik mexanizmlar tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarni sport to'garagiga faol jalb qilishda yangi uslublarning ilmiy-nazariy asoslari ochib beriladi.

Maqsad: Talabalarni sport to'garaklariga jalb etishning samaradorligini oshirishda aralash ta'lim texnologiyalarining pedagogik asoslari va didaktik mexanizmlarini ishlab chiqish.

Vazifalar: Aralash ta'lim texnologiyalarining mazmunini aniqlash;

Sport to'garaklari faoliyatini tahlil qilish;

Talabalarni jalb qilishda pedagogik yondashuvlarni aniqlash;

Samarali didaktik mexanizmlarni taklif etish.

Bugungi kunda aralash ta'lim texnologiyasi O'zbekistonning ko'plab oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilmoqda. Misol uchun, Samarqand davlat universitetida aralash ta'lim usullarining rivojlanishi, turlari, afzalliklari va kamchiliklari o'rganilgan. Shuningdek, Jizzax davlat pedagogika universitetida texnologik ta'lim metodikasi fani doirasida aralash ta'limning innovatsion shakllari o'rganilmoqda.

Yurtimiz olimlaridan I.Jabborov, Y.Jumaboyev, X.Ziyoyev, D.Kenjayeve, K.Najmiddinova, K.Nazarov, D.Raximboyeva, M.Xayrullayev, M.Xolmatova, P.Xudoybergenova, X.Shayxova, E.Yusupov, N.Xolmetova va boshqalar shaxs



ma'naviyati, madaniyati, uning ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy madaniyatning roli, talabalarda sport to'garaklariga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirish va uning falsafiy jihatlarini tadqiq etgan.¹

Ta'lim tizimida aralash ta'lim shaklini joriy etish o'quv jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qilishga yordam bermoqda. Biroq, uning muvaffaqiyatli tatbiqi uchun o'qituvchilar va talabalar tomonidan raqamli vositalardan samarali foydalanish, shuningdek, tegishli infratuzilma va metodik qo'llanmalar zarur.

Aralash ta'lim texnologiyasi faqat nazariy fanlargaгина emas, amaliy mashg'ulotlar, jumladan, sport to'garaklari uchun ham juda samarali hisoblanadi. Bu yondashuv orqali amalga oshiriladi.

- talabalar sport turlari bo'yicha nazariy bilimlarni onlayn tarzda egallashi, amaliy mashg'ulotlarda esa jismoniy ko'nikmalarni mustahkamlashi mumkin. Masalan: Onlayn darsda sog'lom turmush tarzi, mashqlarni to'g'ri bajarish texnikasi, ovqatlanish rejimi o'rgatiladi, amaliy mashg'ulotda esa bu bilimlar real harakatlar bilan mustahkamlanadi

Aralash ta'lim texnologiyasi dunyo bo'ylab 1990-yillardan boshlab rivojlana boshladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham bu yondashuvning ahamiyati oshib bormoqda. Masalan, 2024-yilda Allamova Shoxista Shavkat qizi tomonidan aralash ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalar asosida ta'lim tizimini takomillashtirish mavzusida ilmiy ishlar olib borildi. Aralash ta'lim texnologiyasi asosida talabalarda sport to'garaklariga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirish kelajakdagi mutaxassis, talabalik yillarida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini muntazam anglashi, nafaqat o'z sohasining mutaxassisi, balki mashaqqatli mehnatdan keyin tanani tiklash uchun turli xil ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan shaxs bo'lishi uchun zarurdir. Shu munosabat bilan ko'rib chiqilayotgan muammoni o'rganish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹ Yuldosheva S.M. O'zbekistonda sog'lom avlodni ma'naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. nom dis. - Toshkent, ROIAM, 2001. - 119 b.
Yusupov Ye. Yoshlarning ma'naviy kamoloti. -Toshkent: O'zbekiston, 1995. - 32



T.I.Isayevaning tadqiqotida aralash ta'lim texnologiyasi asosida talabalarda sport to'garaklariga jalb etish mazmuni, ularni o'rganish va qo'llash texnologiyalari aniqlandi, ta'lim mazmunining tarkibiy va funksional aloqalari, aralash ta'lim texnologiyasi asosida talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning xalqchil sog'lomlashtirish vositalari o'rnatildi.

Oshina O.V. tomonidan olib borilgan dissertatsiya tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasasining o'quv jarayonida talabaning to'garaklarga tayyorligi, uning loyihalashi akmeologik yondashuvga asoslangan holda sodir bo'lsa, hissiyotni shakllantiruvchi ichki va tashqi motivlardan foydalanilsa, aks ettirish va o'z taqdirini o'zi belgilash mexanizmlari rag'batlantirilsa qolaversa akmeologik pozitsiya amalga oshsa, muvaffaqiyatli shakllanadi

Aralash ta'lim texnologiyasi asosida talabalarda sport to'garaklariga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirish muammosini hal qilishga hissa qo'shish uchun N.A.Meleshkova oliy ta'lim muassasalari sport to'garaklariga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirish, sog'lomlashtirish yo'nalishlarini rivojlanish maqsadida auditoriya va auditoriyadan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini birlashtirishning oqilona usullarini ishlab chiqildi va tadqiqot tarzida sinovdan o'tkazildi.²

Metodologiya

ushbu ilmiy tadqiqotning metodologiyasi aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarni sport to'garaklariga jalb etish jarayonini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha tadqiqotning nazariy qismida ishlab chiqilgan dasturni amalga oshirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish uch bosqichni – aniqlash, shakllantirish va nazorat qilishni o'z ichiga olgan edi.

²Мелешкова Н.А. Формирование здорового образа жизни студентов вуза в процессе физического воспитания.

автореф. кан. пед. наук – Камерова , 2005. – 28 с



Aniqlash bosqichining maqsadi tadqiqot ish uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Shakllantirish bosqichining maqsadi - nazorat-tajriba guruhlarini tuzish va ishlab chiqilgan dasturni tajriba guruhida sinab ko'rish, uni amalga oshirish uchun amaliy jihatdan ishlab chiqilgan va nazariy jihatdan asoslangan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish. Nazorat bosqichining maqsadi dasturimizni amalga oshirish natijasida tadqiqot guruhda sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyoj qanday o'zgarganligini aniqlash, nazorat guruhida oddiy o'quv ishlari natijasida olingan natijalarni taqqoslash; xulosalar chiqarishdan iborat. Talabalarida aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garagiga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirish jarayoni shunday ahamiyatli tomonlari bor. Chunki bu jarayon natijalar bilan bog'liq bo'lgan va doimiy o'z ustida ishlash, ish jarayonini yangilab, takomillashtirib turishni taqazo etadi. Tadqiqotning nazariy qismida biz tomonidan ishlab chiqilgan dasturning samaradorligini aniqlashga imkon beruvchi harakatlarning mantiqiy ketma-ketligini ifodalaydi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida olib borildi:

Kuzatish usuli: Sport to'garaklarida aralash ta'lim (ya'ni, an'anaviy + raqamli) asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar jarayoni tizimli ravishda kuzatildi. Kuzatishda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

- Talabalar ishtirokining muntazamligi;
- Mashg'ulotlarda faollik darajasi;
- Texnologiyalarning qo'llanish holatlari (video darslar, masofaviy mashg'ulotlar, mobil ilovalar orqali mashqlar).

So'rovnoma usuli: Talabalar va sport murabbiylari orasida maxsus ishlab chiqilgan so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnoma quyidagilarga yo'naltirildi:

- Aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalanish haqidagi fikr va munosabatlar;
- Sport to'garaklarida qatnashish sabablari va to'siqlari;



- Texnologiyalar orqali taqdim etilgan sport mashg'ulotlarining motivatsiyaga ta'siri.

Natijada talabalar orasida sportga bo'lgan munosabat va raqamli yondashuvlarning qabul qilinish darajasi aniqlandi. Tadqiqot **So'rovnoma** anketasi uchta savol blokini o'z ichiga olgan:

1-blok aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garaklariga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirishga qaratilgan;

2-blok aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garaklariga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirishga qaratilgan;³

3-blok aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garaklariga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirishning o'rni haqida ma'lumot olish uchun mo'ljallangan edi.

Tadqiqot vositalari 30 tadan savolni o'z ichiga qamrab olgan 3 ta blokdan iborat anketalar, ulardan 60% tanlab olish uchun belgilangan pozitsiyadagi ro'yxat yopiq bo'lgan, 30% yarim yopiq sifatida taqdim etiladi, qaysiki extimoliy javoblar ro'yxatidan tashqari "boshqa" pozitsiyasi mavjud bo'lgan, unda talaba o'rganilayotgan muammo bo'yicha o'z qarashlarini yozish imkoniyati berilgan. Qolgan 10% ochiq savollar, respondentlar ma'lum bir masalaga nisbatan o'z fikri va munosabatini ochiq bildiradi oldilar.

Eksperiment usuli: Eksperiment sifatida ikki guruh shakllantirildi: Eksperimental guruh – aralash ta'lim texnologiyalari asosida sport mashg'ulotlarini olib bordi (masalan, Telegram/Zoom orqali onlayn topshiriqlar, video mashqlar, gamifikatsiya elementlari).

³ Muallif ishlanmasi





Nazorat guruhi – faqat an'anaviy usullarda (zaldagi odatiy mashg'ulotlar) shug'ullandi. Tajriba davomida ikki guruhning faoliyati, ishtirok chastotasi va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari taqqoslandi.

Tajriba – sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad “Aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garaklariga jalb etishning” pedagogik asoslarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish borasida kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlardan samarali foydalanish darajasini aniqlashdan iborat. Tajriba-sinov ishni rejalashtirish, tashkil etish, olingan materiallarni qayta ishlash pedagogik tadqiqot bo'yicha maxsus adabiyotlarda va ilmiy ishlarda (Yu.K. Babanskiy, D.V.Chernilevskiy, N.A.Zinovyev, M.M.Gairbekov va boshqalar) keltirilgan ko'rsatmalar va tavsiyalar asosida amalga oshiriladi

Tajriba-sinov ishi uch bosqichda 2021 - 2022 yillar mobaynida amalga oshirildi

Birinchi bosqichda (2021 yil noyabr-dekabr) tadqiqot dasturi asosida BDU ANDPI, KU talabalari orasida tadqiqot masalalari bo'yicha so'rovlar o'tkazildi. So'rovnomalar BDU ANDPI, KU fakultetlari, dekanlar, kafedra mudirlari, magistr va direktorlari ko'magida va ishchi guruhni tashkil etuvchi tadqiqotchilarning tashqi nazorati ostida o'tkazildi.⁴

Ikkinchi bosqichda (2020-2021 yillar) anketa so'rovi, test sinovi, tajriba-sinov materiallari tahlil qilindi.

Uchinchi bosqichda, 2022-2023 yillarida olingan ma'lumotlarning taqqoslash-solishtirish tahlili o'tkazildi.

Ishlab chiqilgan aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garaklariga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirish samaradorligini tajribaviy tekshirish va baholash BDU ANDPI, Kularining Turizm (sport-

⁴ Muallif ishlanmasi





sog'lomlashtirish turizmi) hamda sport va harakatli o'yinlar fanlari o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlarida o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari borishida quyidagilar aniqlandi: talabalarining o'quv faoliyatga motivatsiyasi; talabalar tomonidan kasbiy fanlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarning egallanishi; kasbiy fanlarida olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash; kasbiy fanlari bo'yicha qoldiq bilimlar; talabalarining kasbiy fanlariga munosabati aniqlandi.

Natijalar

Tajriba-sinov guruhda kasbiy fanlarini o'rganish ishlab chiqilgan metodika bo'yicha olib borildi. O'quv materialini tuzilmalashtirish va pedagogik texnologiyani qo'llagan holda, asosiy e'tibor loyihalash faoliyati elementlari bo'lgan amaliy ishlarini bajarishga, umumlashgan namunaviy masalalar va ijodiy loyihalarni yechishga qaratildi.

Quyidagi ikki farazni shakllantiramiz; H0 nolinchi faraz (farqlarning yo'qligi haqida), H1 al'ternativ faraz (farqlar ahamiyati haqida) H0: kursni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi bo'yicha o'rganadigan tajriba - sinov guruhi talabalarining ijobiy javoblari foizining oshishi darajasi an'anaviy tarzda ta'lim oluvchi nazorat guruhi talabalarining ijobiy javoblari foizi ortishi darajasidan oshmaydi.

H1: kursni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi bo'yicha o'rganadigan tajriba-sinovo guruhi talabalarining ijobiy javoblari foizi oshishi darajasi an'anaviy tarzda ta'lim oluvchi nazorat guruhi talabalarining ijobiy javoblari foizi ortishi darajasidan yuqori.

Jadvaldan foydalanib, avval nazorat va tajriba-sinov guruhlarining to'g'ri javoblar sonini taqqoslaymiz.

Kasbiy fanlarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi bo'yicha o'rgangan talabalar ijobiy javoblarining ortishi darajasi, kursni an'anaviy tarzda o'rgangan talabalarining ijobiy javoblari foizi oshishi darajasidan yuqori bo'ladi.





Demak, kasbiy fanlarini o'qitishda kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi qo'llash natijasida bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaraliroq bo'ladi, deb hisoblash mumkin. Pedagogik eksperiment tadqiqotning farazini ta'sdiqladi.⁵

Xulosa

Aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garagiga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishning yana bir pedagogik shart-sharoitlaridan qadriyatli yondashuvlar hisoblanadi. Mashg'ulotlarda sog'lom turmush tarzining asosiy jihatlarini faol o'zlashtirish maqsadida rol o'yinlar, keys-stadilar, guruh muhokamasi, aqliy hujum, videotahlil, taklif etilgan mavzu bo'yicha trener tomonidan namoyish etilgan videorolik usullaridan foydalanildi. Dasturida sog'lom oziq-ovqat, kiyim tanlash va ko'pincha o'z sog'lig'iga nisbatan yoshlar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni tanlash imkonini beruvchi amaliy vazifalarning rasmlari bo'lib, tadqiqot ishning shakllantirish bosqichida mualliflik dasturining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi biz tomonidan ishlab chiqilgan sport o'yinlari, xususan, Volleybol va boshqa sport turlari orqali sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligini sinab ko'rish imkonini berdi.

Aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garagiga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni takomillashtirish dasturi matritsa vazifasini o'tashi mumkin va geografik joylashuvidan qat'i nazar, har qanday ta'lim muassasasi sharoitida qo'llash imkonini beradi.

Takliflar

Yuqoridagi xulosalar va tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalar taqdim etiladi:

⁵ 1. Muallif ishlanmasi





1. Aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garagiga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirishda o'quv-metodik ta'minot mobilligi asosida o'qitishning innovatsion metodlarini joriy qilish;

2. Aholining turli qatlamlarida aralash ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni sport to'garagiga jalb etishning pedagogik asoslarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini tabaqalashtirilgan elektron dasturlari va veb saytlarini yaratish mexanizmlarini ishlab chiqish;

3. Imkoniyati cheklangan insonlarda sog'lom turmush tarzi, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda, o'ziga mos keladigan sport-sog'lomlashtirish turlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O'zbekiston Respublikasining 04.09.2015 y. O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. <https://lex.uz/docs/-2742233>

3. Raximov V. "Jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish turizmi" nomli Elektron axborot ta'lim resursi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xuzuridagi intellektual mulk agentligi № BGU 00492-sonli Guvohnoma)

4. Raximov V. Sport va harakarli o'yinlarini o'qitish uslubiyoti (sport o'yinlari). - T.: "Fan ziyosi", 2022, 512 bet.

5. Rasulova O. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. d-ri.... dis. - Toshkent, 2015. – 316 b. +

6. Riskulova K. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda nodavlat tashkilotlarning xamkorligi: Ped. fan. nom dis. avtoref. - Toshkent: O'zDJTU, 2011. - 21 b.



7. Рожков М.И., Гребенюк О. С., Байбородова Л. В., Гребенюк Т. Б. Педагогика в 2 т. Том 1.— М.: Издательство Юрайт, 2018.— 402
8. Рокич М. Ценностные ориентации – Санкт – Петербург: Питер, 2015. – 704 с.
9. Ruziyeva D.I. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida milliy iftixor tuygusini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. d- ri dis. - Toshkent:TDPU, 2007. - 274 b.
10. Мелешкова Н.А. Формирование здорового образа жизни студентов вуза в процессе физического воспитания. автореф. кан. пед. наук – Камерова , 2005. - 28 с
11. Muallif ishlanmasi